

O'quvchilarga asar haqida qisqacha ma'lumot beriladi:

"Boburnoma" – Boburning tarixiy asaridir. Asarda Bobur hayotining barcha voqealari, uning harbiy yurishlari tasvirlangan.

Rivoyat matnidan foydalanib, gaplarni to'ldiriladi.

Umarshayx Mirzo o'rnidan turib katta-katta qalin **kitoblarga** ko'z yugurtirdi. Ular **Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Ahmad Farg'oniy, Arastu, Pifagor, Ahmad Yassaviyning** devonlari ekanini ko'rib yengil tortdi. Zahiriddin Muhammad Boburning ota va onasining ismlarini yoziladi.

Qo'shimcha ma'lumot sifatida Zahiriddin Muhammad Boburning ijodidan parcha o'qib beriladi va muhokama qilinadi:

Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidur,

Har kimki jafo qilsa, jafo topqusidur.

Yaxshi kishi ko'rmag'ay yomonlig' hargiz,

Har kimki yomon bo'lsa, jazo topqusidur.

3. Darsni yakunlash va baholash:

-Bugun darsda Zahiriddin Muhammad Bobur haqida nimalarni bilib oldik?

 **Uyga vazifa:** Hikoyani o'qing mazmunini so'zlab bering. Bobur haqida qo'shimcha ma'lumotlarni topib yozing.

16-mavzu: Qatag'on qurbonlari xotirasi

Ta'limiy maqsad: o'quvchilarni Zahro Hasanovanning "Manguga muhrlanganlar yodi" hikoya mazmuni bilan tanishtirishyu

Tarbiyaviy maqsad: jadid bobolarmiz haqida ma'lumot berish.

Rivojlantiruvchi maqsad: xulosa va tahlil ko'nikmalarini rivojlantirish.

O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:

Dars turi: yangi bilim beruvchi

Dars metodi: savol-javob, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash.

Dars jihozi: mavzuga mos rasmlar, tarqatmalar

Darsning blok chizmasi:

1. Kirish qismi (tashkiliy qism va o'atilganlarni takrorlash):

- O'quvchilar yangi kun bilan qutlanadi.
- Mavzu nomi e'lon qilinadi.
- Tashkiliy savollar beriladi.
- Mavzuga qiziqtirish: o'quvchilar 3 guruhga bo'lib olinadi.

So'zlarni o'z o'rniga qo'ying va jumlani o'qing.

1-guruh uchun:

bizning	ajdodlarni	burchimiz	o'rganmoq
---------	------------	-----------	-----------

2-guruh uchun:

adolat	yengadi	emas	adovat
--------	---------	------	--------

3-guruh uchun:

allomalar	yashab	Vatanimizda	o'tgan
-----------	--------	-------------	--------

-O'atilgan mavzuni takrorlash: hikoya mazmunini yuzasidan suhbatlashiladi. Bobur haqida qo'shimcha ma'lumotlar so'raladi.

2. Darsning asosiy qismi:

☒ **Amaliy topshiriq.** Rasmda tasvirlangan ajdodlarimizni ayting.

? Muhokama uchun quyidagi savollar tavsiya etiladi:

1. Rasmda kimlarni ko'ryapsiz?
2. Ularning qaysi tomonlari sizga buni aniqlashga yordam berdi?

Mavzuni tushuntirish. “Aqliy hujum”metodi. Sarlavhani o‘qing. O‘ylab ko‘ring, muallif bu orqali nima demoqchi?

O‘quvchilarning fikri tinglanadi va to‘ldiriladi.

Matn ustida ishlash. Muallif haqida qisqacha ma’lumot berish.



Zahro Hasanova 1962- yili Toshkent shahrining Labzak dahasida tug‘ilgan. “Zukko Alifbo”, “Kutilmagan sovg‘a”, “Topishmoq va tez aytishlar”, “Salom, maktab”, “Ko‘zmunchog‘im” nomi bilan kitob holida turli nashriyotlarda chop etildi.

Zahro Hasanovaning “ Manguga muhrlanganlar yodi” hikoyasi o‘quvchilarga navbatma-navbat o‘qitiladi.

? Matn yuzasidan savollarga javob beriladi.

1. “Shahidlar xotirasi” majmuasi qayerda joylashgan?
2. “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyi devorlarida kimlarning portreti osilgan?
3. Vatanparvar deganda nimani tushunasiz?
4. Nima uchun ularning nomi xotiramizda mangu yashaydi?

Lug‘at ishi:

qatag‘on–yo‘q qilmoq

qurbon–biror sabab bilan hayotdan ko‘z yummoq.

shahid–haqqoniyat yo‘lida jonini fido qilgan odam.

jabr-u jafo–zulm,azob.

jadid–yangilik tarafdori

ong-u shuur– aql-idrok

mangu – abadiy, umrbod.


 **Mashq daftari bilan ishlash.** Jadvaldagi ma’lumotlardan foydalanib, shifrlangan so‘zni toping. Siz maktablar ochgan va ko‘plab darsliklar yozgan ma’rifatparvar shoir, jurnalist, olim kim ekanligini bilib olasiz. (Abdulla Avloniy)

“Millat manfaatini o‘ylagan zotlar, sizni unutmaydi aslo avlodlar!”

Shiori ostida berilgan allomalar haqida ma’lumotlar o‘qiladi.

Darslikdagi ma’lumotlarga qo‘shimcha tarzda berilishi mumkin:

Abdulhamid Cho‘lpon –
shoir, yozuvchi, tarjimon va
jamoat arbobi.



Abdurauf Fitrat – o‘zbek tarixchisi,
tarjimon, yozuvchi va shoir,
zamonaviy o‘zbek tili va adabiyoti
asoschilaridan biri.

Roman – muayyan shaxs yoki bir necha shaxsning
shakllanish va kamol topish jarayoni, badiiy makon va
zamonda tasvirlangan asar.



3. Darsni yakunlash va baholash:

-Bugun darsda nimalarni bilib oldik?

-Darsda nimalarni bajardik?

-Jadid bobolarimiz haqida qanday ma’lumotga ega bo‘ldingiz?

 **Uyga vazifa:** “Manguga muhrlanganlar yodi” matnini o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.

17-mavzu: Mehnatsiz taxt kelmas

Ta’limiy maqsad: o‘quvchilarni Abdulla Avloniyning “Bolari bilan pashsha” hikoyasi mazmuni bilan tanishtirish.

Tarbiyaviy maqsad: mehnat qilishning inson hayotidagi o‘rni haqidagi tushunchalarini boyitish.

Rivojlantiruvchi maqsad: tinglab tushunish malakasini shakllantirish.

O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:

Dars turi: yangi bilim beruvchi

Dars metodi: savol-javob, interaktiv o'yinlar

Dars jihozi: mavzuga mos rasmlar, ko'rgazmali qurollar.

Darsning blok chizmasi:

1. Kirish qismi (tashkiliy qism va o'tilganlarni takrorlash):

- O'quvchilar yangi kun bilan qutlanadi.

- Mavzu nomi e'lon qilinadi.

- Tashkiliy savollar beriladi.

- Qizitish bosqichi: **"Javob bermang"**

O'quvchilar doirada turishadi. Bir o'quvchi boshqa o'quvchiga savol beradi, masalan: "O'zingga yoqadigan odating nima?" Lekin, bu o'quvchi javob bermasligi kerak. Buning o'rniga, uning chapidagi o'quvchi javob beradi. Javoblar to'g'ri bo'lmasa ham, o'quvchilar maksimal darajada ijodiy bo'lishlari mumkin.



- Darsga qiziqtirish bosqichi: Faollashtiruvchi mashq.

Maqolni davom ettiring.

Mehnatdan kelsa boylik,

- **O'tilganlarni takrorlash.** "Manguga muhrlanganlar yodi" matni.

2. Darsning asosiy qismi:

Amaliy topshiriq. Mehnat so'zi bilan birikma hosil qiling.

(Qanday) mehnat?

Muhokama uchun quyidagi savollar tavsiya etiladi:

1. Mehnat qanday bo'lishi mumkin?
2. Mehnat qilish deganda nimani tushunasiz?

Mavzuni tushuntirish. Suhbat o'tkaziladi.

-Bolari va pashshaning o'xshash va farqli tomonlarini ayting.

O'quvchilarning fikri tinglanadi va to'ldiriladi.

Matn ustida ishlash. Masal muallifi haqida qisqacha ma'lumot beriladi.



Abdulla Avloniy.

Abdulla Avloniy – o'zbek milliy madaniyatining mashhur vakillaridan biri ma'rifatparvar shoir, jurnalist, olim, davlat va jamoat arbobidir. Avloniy maktablar ochgan va ko'plab darsliklar yozgan.

Abdulla Avloniyning "Bolari bilan pashsha" masalni zanjir usulida o'qitiladi. Matn yuzasidan savollarga javob beriladi.

1. Pashsha yo'lda nimani uchratibdi?
2. Ayting-chi, pashshaning yashash tarsi qanday ekan?
3. O'ylab ko'ring, nima uchun arini insonlar maqtashar ekan?
4. Masalning xulosasini qanday tushundingiz? Fikringizni bildiring.

Matndagi notanish so'zlar yuzasidan lug'at ishi o'tkaziladi.

Mum–asalari o'zi ishlab chiqarib, o'ziga uya quradigan saqishsimon modda.

Bol–asal.

Birodar–o'rtoq, og'ayni.

Mashaqqat–qiyinchilik, zahmat.

Lazzat–maza, ta'm

Maqbul–ma'qul ish.

Xorlik–kamsitilish

Masal janri haqida qisqacha ma'lumot beriladi.

Masal axloqiy mazmunni kinoyaviy obrazlar orqali aks ettiradigan badiiy asardir. Masalda inson xarakteriga xos xususiyatlar kinoyaviy obrazlar— hayvonlar, jonivorlar va o'simliklar dunyosiga ko'chiriladi. Ko'pincha masalning kirish qismida, ba'zan oxirida qissadan hissa, ya'ni ibratli xulosa chiqariladi.

Masalni rollarga bo'lib o'qitiladi.

Mashq daftari bilan ishlash. Masalni tahlil qilinadi.

Darslikdagi topshiriqlar bajariladi. Mehnat haqida maqollarni o'qing.

Mehnat qilib topganing qand-u asal totganing.

Mehnat baxt keltirar.

Siz yana qanday maqollarni bilasiz?

Topishmoqning javobi topiladi.



Erta bilan turadi,
Gul changini yig'adi.
Bol tayyorlab insonga,
Mehnatdan hech tolmaydi.



Bahor-u yoz va kuzda,
Ko'ramiz hamma joyda,
Mikroblarni tarqatar
Keltirib bizga zarar.

3.Darsni yakunlash va baholash:

- "Bolari va pashsha" masali nima haqida ekan?

- Hikoyadan qanday xulosa chiqardingiz?



Uyga vazifa: Masalni o'qing va mazmunini so'zlab bering.

18-mavzu: Yuksak ma'naviyatli avlod

Ta'limiy maqsad: o'quvchilarni Anvar Obidjonning "Yuksak ma'naviyatli avlod" she'ri bilan tanishtirish.

Tarbiyaviy maqsad: ilm o'rganishning kundalik hayotdagi o'rnini tushuntirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: bog'lanishli nutqini o'stirish, fikrlash qobiliyatini shakllantirish.

O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:

Dars turi: yangi bilim beruvchi

Dars metodi: savol-javob, interaktiv o'yinlar

Dars jihozi: mavzuga mos rasmlar, ko'rgazmali qurollar.

Darsning blok chizmasi:

1.Kirish qismi(tashkiliy qism va o'tilganlarni takrorlash):

- O'quvchilar yangi kun bilan qutlanadi.
- Mavzu nomi e'lon qilinadi.
- Tashkiliy savollar beriladi.
- Qizitish bosqichi: *"Yo'qolgan ism" mashqi*

O'quvchilar o'zlarini tasvirlovchi bir sifatni o'ylab topishadi. Bu sifat ularning tabiatiga uchun mos bo'lishi kerak.



Har bir o'quvchi o'z ismi bilan boshlanadigan va ularni yaxshi tavsiflaydigan bir sifatni tanlaydi. Masalan:

"Sabrli Sanjar"

"Boshqalar uchun Yordamchi Yasmina"

"Chidamli Charos"

"Aqli Abdulla"

"Mehribon Malika"

Birinchi o'quvchi o'z ismini va sifatini aytadi. Masalan:

"Men sabrli Sanjarman".

Keyingi o'quvchilar esa, avvalgi ismlarni va sifatlarini eslab aytishlari kerak. Ikkinchi o'quvchi o'z ismi va sifatini ham, avvalgi o'quvchining ismi va sifatini qo'shadi:

"Men Sabrli Sanjar va Men Boshqalar uchun Yordamchi Yasminaman".

Mashq davom etadi, va har bir yangi o'quvchi avvalgi barcha ismlarini va sifatlarini eslab aytadi, o'z ismi va sifatini qo'shadi:

"Men Sabrli Sanjar, Men Boshqalar uchun Yordamchi Yasmina va Men Chidamli Charosman."

Shunday qilib, o'quvchi ismlarni eslab, o'zlarini tanishtiradi. Har bir yangi o'quvchiga avvalgi barcha ismlar eslatiladi va ularni eslab olish kerak bo'ladi. Bu mashq guruh ichida bir-birini tanishish va birgalikda ishlashni o'rganish uchun ajoyib usuldir.

-Faollashtiruvchi mashq: *"Adashgan so'zlar" mashqi.*

So'zlarni o'z o'rniga qo'ying va maqolni o'qing.

bilganing

toshga

yoshlikda

yozganing

-O'tilganlarni takrorlash: Masalni mazmuni so'zlab beriladi.

2. Darsning asosiy qismi:

✓ Amaliy topshiriq: "Men kimman?" mashqi

Men ota-bobolarimning davomchisi, kelajakda ularning ishonchini, orzu-umidlarini ro'yobga shiqaruvchi insonman. Men kimman? (Avlod)

Muhokama uchun savollar.

1. Sizningcha, gap kim haqida ketyapti?
2. Nima uchun shu fikrni tanladingiz?

☒ **Mavzuni tushuntirish.** Rasm asosida suhbat uyushtiriladi.

O'quvchilarga quyidagi savollar beriladi.

Rasmda kimlarni ko'ryapsiz?

Sizningcha, ularni nima birlashtirib turibdi?

Yuksak ma'naviyatli avlod deganda nimani tushunasiz?

☒ **Matn ustida ishlash.**

- *"O'rmondagi ziyofat" ertagining muallifi kim edi?(Anvar Obidjon)*

Muallif haqida qisqacha ma'lumot.



Anvar Obidjon 1947-yil 8-yanvarda tavallud topgan o'zbek jurnalisti va shoiridir. O'rta maktabda o'qib yurganida „G'uncha“ jurnalida „Shkafjon“ nomli birinchi she'ri bosilgan. Anvar Obidjon 1997-yil „Shuhrat“ medali bilan taqdirlangan, 1998-yilda „O'zbekiston xalq shoiri“ unvoniga sazovor bo'lgan.

Anvar Obidjon 2020-yil 11-aprel kuni Toshkent shahrida 74 yoshida vafot etdi.

Anvar Obidjonning „Yangi avlod“ she'ri navbatma-navbat o'qitiladi. She'r yuzasidan savollarga javob beriladi.

1. Sizningcha, she'r kimning nomidan aytilgan?
 2. She'rda tilga olingan buyuk ajdodlarimiz nomini ayting. Bu misralarni topib o'qing.
 3. Buyuk ajdodlarga munosib avlod qanday bo'lishi kerak deb o'ylaysiz?
 4. Munosib avlod bo'lish uchun siz qanday yo'l tutasiz?Fikringizni izohlang.
 5. She'rdan olgan taassurotlaringizni ayting.
- She'r matnidagi notanish so'zlar ustida lug'at ishi o'tkazish.

Qalqon–himoyachi.

Inon–ishon.

Savlat–ko‘rk, iftixor.

Qahr –g‘azab.

Suyuk–sevimli.

Qutlug‘–muqaddas.

Ajdod– ilgari yashab o‘tgan ota-bobolar.

Avlod–zamonning ma‘lum qismiga mansub odamlar.

Mashq daftari bilan ishlash. Mashq daftaridagi topshiriqlar bajariladi.

☒ **“Qofiyadoshini top” mashqi.**

She‘rdagi qofiyadosh so‘zlar juftlab yoziladi (qalqonimiz-jonimiz, davlat-savlat-hazrat, bag‘rimizdir-qahrimizdir-faxrimizdir).

She‘rda doimiy takrorlanayotgan satr topib yoziladi(Buyuk xalqim, suyuk xalqim, bizga inon).

She‘r matnida tilga olingan ajdodlarimiz yoziladi (Al-Buxoriy, at-Termiziy, Ulug‘bek, al-Farg‘oniy, Temur bobo, Manguberdi, Alpomish, Navoiy).

Darslikdagi “Bilib qo‘yganingiz yaxshi!” rukni ostida berilgan ma‘lumotlar o‘qiladi. At-Termiziy va Jaloliddin Manguberdi haqida fikr almashinadi.

Bilib qo‘yganingiz yaxshi!



At-Termiziy chuqur ilm va keng dunyoqarashga ega bo‘lgani uchun “Al-Hakim” (dono) degan taxallusni olgan.

Jaloliddin Manguberdi Xorazmshohlar davlatining so‘nggi hukmdori bo‘lgan.



3.Darsni yakunlash va baholash:

-She'r nima haqida ekan?

-Fikrni yakunlang: Men buyuklar avlodiman. Shuning uchun men....

 **Uyga vazifa:** She'rni ifodali o'qing. "Ajdodlarga munosib avlod bo'laman" mavzusida kichik matn yarating.

9-dars mavzusi: Bo'lim yuzasidan takrorlash

Darsning maqsadi:

Ta'limiy maqsad: "Buyuklar xotirada mangu yashaydi" bo'limi yuzasidan o'quvchilar egallagan bilimlarini mustahkamlash.

Tarbiyaviy maqsad: ajdodlarimizga nisbatan hurmat tuyg'usini shakllantirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: bog'lanishli nutqini o'stirish, fikrlash qobiliyatini shakllantirish.

O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:

Dars turi: mustahkamlash

Dars metodi: savol-javob, boshqotirmalar

Dars jihozi: krossvord, rag'bat kartochkalari.

Darsning blok chizmasi:

1.Kirish qismi(tashkiliy qism va o'tilganlarni takrorlash):

-O'quvchilar yangi kun bilan qutlanadi.

-Mavzu nomi e'lon qilinadi.

-Tashkiliy savollar beriladi.

-Faollashtiruvchi mashq: **"Men kimman?"mashqi**

Men Andijonda tavallud topdim. Mening nomim "yo'lbars" yoki "sher" degan ma'noni anglatib, jangdagi jasoratim uchun berilgan edi.

Men kimman?

-O'tilganlarni takrorlash: "Ajdodlarga munosib avlod bo'laman" mavzusida yaratilgan kichik matnlar bilan tanishiladi.

2. Darsning asosiy qismi: